



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI

**ZAMONAVIY INNOVATSION
TADQIQOTLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
VA RIVOJLANISH
TENDENSIYALARI:
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR
RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI
TO'PLAMI**



**15-16-MAY
2026-YIL**



**Google
Scholar**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

**ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB
MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR
VA ISTIQBOLLAR**

*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 15-16-may)*

JIZZAX-2026

Bo'lajak o'qituvchilarning metakognitiv refleksiya-rivajlanishini zamonaviy pedagogik ta'limning muhim yo'nalishlaridan biridir. Sun'iy intellekt vositalari ushbu jarayonni rejalashtirish, monitoring qilish, xatolarni tahlil etish, strategiyani yangilash va yakuniy baholash bosqichlarida samarali qo'llab-quvvatlaydi. Maqolada tahlil qilingan algoritmik model shuni ko'rsatadiki, metakognitiv refleksiya tasodifiy yoki subyektiv kechinma emas, balki boshqariladigan, raqamlashtiriladigan va monitoring qilinadigan pedagogik jarayondir. Sun'iy intellekt asosidagi semantik tahlil, refleksiv profil, e-portfolio va analitik dashboardlar bo'lajak o'qituvchilarning o'z-o'zini anglash, kasbiy qaror qabul qilish va strategik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam berad.

Shunday qilib, sun'iy intellekt vositalarini metakognitiv refleksiya jarayoniga integratsiya qilish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va pedagogik faoliyatga ongli yondashuvini shakllantirishda muhim ilmiy-metodik imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Flavell, J. H. Metacognition and Cognitive Monitoring: A New Area of Cognitive-Developmental Inquiry. *American Psychologist*, 1979, 34, 906–911.
2. Schön, D. A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. New York: Basic Books, 1983.
3. Zimmerman, B. J. Becoming a Self-Regulated Learner: An Overview. *Theory Into Practice*, 2002, 41(2), 64–70.
4. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education. London: Pearson, 2016.
5. Azevedo, R., & Hadwin, A. F. Scaffolding Self-Regulated Learning and Metacognition: Implications for the Design of Computer-Based Scaffolds. *Instructional Science*, 2005, 33, 367–379.
5. Miao, F., Holmes, W., Huang, R., & Zhang, H. AI and Education: Guidance for Policy-Makers. Paris: UNESCO, 2021.
6. Saitkulova Nazokat Raxmonovna. Bo'lajak o'qituvchilarning metakognitiv refleksiya-rivajlanishini rivojlantirish texnologiyasi. *Filologiya va pedagogika. Ilmiy -metodik jurnal*, 2026, 8 (27) - son, 157- bet

SYUJET VA UNING TARKIBIY QISMLARI (O'LMAS UMARBEOVNING "ODAM BO'LISH QIYIN" ASARI MISOLIDA)

Aliyeva Sevinch Sayfiddin qizi

O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali stajyor-o'qituvchisi.

Shobidinova Gulsevar Toshtemir qizi

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyotshunoslikning syujeti va uning tarkibiy qismlari haqida to'liq ma'lumot beriladi. Mavzuni yanada ochib berish maqsadida, O'lmas Umarbekovning "Odam bo'lish qiyin" asari misol qilinib olindi va asarni

syujet unsurlarida ko‘rib chiqildi. Maqola natijasida syujetning badiiy g‘oya va obrazlar tizimidagi o‘rni ochib beriladi.

Kalit so‘zlar : syujet, ekspozitsiya, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim, xronikal, konsentrik.

Syujet- badiiy asarning tuzilishi, voqealar joylashuvi va qismlarning o‘zaro bog‘lanishidir. Badiiy asarni ilmiy tahlil qilishda syujet masalasi markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. Adabiyotshunoslik fanida syujet voqealar tizimining mantiqiy tartibdagi ifodasi sifatida talqin etiladi [1; 2]. Maksim Gorkiy ta’biricha, syujet qahramonlarning tarixiy rivojlanishi va tashkil topib borishi jarayonini aks ettiradi [3]. Qo‘shimcha qilib aytganda, har qanday asarni chuqur anglash uchun uning syujet tuzilishini tahlil qilish muhimdir. Shu nuqtayi nazardan, “Odam bo‘lish qiyin” asari syujeti va uning tarkibini o‘rganish dolzarb hisoblanadi.

Syujet haqida tushuncha, syujet tipi va ularning unsurlari. Avvalambor, “syujet” so‘zining ma’nosiga to‘xtaladigan bo‘lsak, syujet (fransuzcha- predmet, “asosga qo‘yilgan narsa”) badiiy shaklning eng muhim elementlaridan biri sanalib, badiiy asardagi bir-biriga uzviy bog‘liq holda kechadigan, qahramonlarning xatti-harakatlaridan tarkib topuvchi voqealar tizimini anglatadi. Syujet- bu badiiy asarda voqealar rivojining mantiqiy tizimi bo‘lib, u muayyan tartib asosida shakllanadi. Syujet orqali asardagi konflikt va g‘oya ifodalanadi. U qahramonlarning xatti-harakatlaridan iborat voqealar tizimini, ya’ni ularning o‘zaro mantiqiy bog‘liq ravishda ketma-ket yoki sabab-natija asosida rivojlanishini anglatadi [2;30]. Adabiyotshunoslik nazariyasida syujetning uch tipi farqlanadi [2;33]. Syujetning 3 tipi bor: Xronikal, konsentrik, xronikal-konsentrik. Xronikal -A voqea yuz bergandan so‘ng B voqea yuz beradi. Konsentrik - A voqea yuz bergani uchun B voqea yuz beradi. Xronikal-konsentrik - bu tipda bir nechta yo‘nalishdagi yirik voqealar bir biriga mustahkam bog‘lanadi. Ikki tipning birlashuvidan hosil bo‘ladi. Biz tahlil uchun olgan O‘lmas Umarbekovning “Odam bo‘lish qiyin” asari voqealar ketma-ket bo‘lganligi sabab konsentrik tipiga kiradi.

Syujetning asosiy tarkibiy qismlari: Ekspozitsiya (kirish) – voqealar boshlanishi, qahramonlar bilan tanishtirish; Tugun – asosiy muammo yuzaga keladigan bosqich (konflikt); Rivojlanish – voqealar ketma-ketligi; Kulminatsiya- eng keskin nuqta, asarning o‘quvchini hayratda qoldiradigan qismi; Yechim-voqealarning yakuni.

Biz ushbu maqolamiz orqali O‘lmas Umarbekovning “Odam bo‘lish qiyin” asarining sujet jihatdan tahlil qilishga harakat qilamiz.

Ekspozitsiya: 1960- yillarning jazirama yoz kunlaridan birida Mingbuloqqa kiraverishdagi oq tunuka tomli uyning eshigini yosh bir yigit taqilatdi. Ichkaridan ha deganda hech kim chiqavermadi, yigit beso‘naqay karton chamadonini qo‘liga olib, eshikni oyog‘i bilan itardi, Yigit ichkariga kirdi [1;23]. Ko‘rinib turibdiki, bu asarning ekspozitsiyasi ya’ni voqealar boshlanishi o’sha yigitning Mingbuloqqa kelishi bog‘lanadi.

Tugun- muammo: Berilayotgan tugun faqatgina romanda emas, balki jamiyatda ham globallashib kelayotgan muammodir. Ya’ni Abdulla sevgi va halollik bilan yashash yoki o‘z manfaati yo‘lida kimnidir ruhan qurbon qilish o‘rtasida qoladi.

Voqealar rivoji: Voqealar davomida qahramon turli sinovlarga duch keladi. Uning ichki kechinmalari, shubhalari va qarorlari chuqurlashadi. Abdulla Toshketntga

o'qishga qaytib ketadi, yangi do'stlar, professor va uning qizi Sayyora bilan tanishadi. Sayyora bilan birgalikda boshqa davlatga o'qishga ketishadi. Natijada, bu yaqinlik Abdullaning Gulchehraga nisbatan sof muhabbatini shubha ostiga qo'yadi. Abdulla asta-sekin o'zgarib, manmanlikka berila boshlaydi va voqealar rivoji davom etadi.

Kulminatsiya: Abdullaning insoniylik, vijdon va mas'uliyat haqidagi shaxsiy fikrlari yo'qolishi va Gulchehradan o'zining manfaatini ustun qo'yishi asosiy kulminatsiya bo'ladigan bo'lsa, Gulchehra o'z or-nomusini yo'qotib qo'yganligi, muhabbati javobsiz qolgani uchun vafot etgani har bitta o'quvchining ko'ziga yosh keladi.

Yechim: Kechikkan pushaymonlik. Abdulla o'z xatolarini anglab-anglamay turgan paytida, Samanning balki men baxtli qilardim degan gaplari syujetning bu tarkibiga misol bo'la oladi. Abdulla nafaqat sevgan insonlarini balki o'zining insoniy qiyofasini ham yo'qotganini tushunadi. Romanning nomi "Odam bo'lish qiyin" jumlasini ularning bosh g'oyasiga aylanadi: Olim bo'lish oson, odam bo'lish qiyin ekanligini isbotladi.

Asar qahramonlari: Abdulla, Gulchehra, Samad va Sayyora asar davomida o'zgarib, rivojlanib boradi. Qo'shimcha epozod sifatida keltirilgan Abdullaning tog'asi hayoti esa qo'shimcha mavzu jihatida asar sujeti atrofida aylanadi.

Mazkur asarda syujet nafaqat voqealar ketma-ketligini, balki insonning ichki dunyosini ochib berish vositasi sifatida xizmat qilgan. Syujet tarkibiy qismlarining izchil qo'llanishi asarning badiiy ta'sir kuchini oshirgan. Shuningdek, asarning konsentrik tipga kirishi o'qilishga oson va tushunarli qilishga yaqindan ko'maklashgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umarbekov O'. Odam bo'lish qiyin: Roman. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1977. – 320 b.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Akademnashr, 2004. – 240 b.
3. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. – 384 b.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДА СИНЕКТИКИ НА УРОКАХ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

к.ф.н., доц. Головина Ирина Викторовна

Тульский государственный педагогический университет им. Л. Н.
Толстого
golovina-tula@yandex.ru

Аннотация: В статье рассматривается понятие и суть метода синектики, указываются принципы и варианты его применения на уроках иностранного языка, анализируются преимущества использования данного метода на уроках.

Ключевые слова: метод синектики, аналогии, творческое мышление